



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 17 - yanvar

39-11-163-Q/24

Farg'ona tumani hokimligi

Farg'ona tumanida mavjud yer resurslarining holati, yer toifalari, yer uchastkalarining egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlari hamda yer turlari bo'yicha taqsimlanishi yuzasidan 2024-yil 1-yanvar holatiga bo'lgan yer hisobotini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Davlat Yer kadastr" to'g'risidagi Qonunning 10 va 11-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi "Davlat kadastrlarini yuritish sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 389-sonli hamda 2023-yil 30-oktabrdagi "Yer resurslarining holati bo'yicha milliy hisobotni yuritish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 578-sonli qarorlariga muvofiq Davlat kadastrlari palatasi Farg'ona tumani filiali tomonidan tayyorlangan **tumandagi mavjud yer resurslarining holati, yer toifalari, yer uchastkalarining egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlari hamda yer turlari bo'yicha taqsimlanishi yuzasidan 2024-yil 1-yanvar holatiga bo'lgan yer hisobotini** ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi"ning 6-moddasi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6, 10-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N

1. Tumandagi mavjud yer resurslarining holati, yer toifalari, yer uchastkalarining egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlari hamda yer turlari bo'yicha taqsimlanishi yuzasidan 2024-yil 1-yanvar holatiga bo'lgan yer hisoboti ilovada ko'rsatilgan ko'rsatkichlar bo'yicha tasdiqlansin.

2. **Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi, Kadastr agentligi tuman bo'limi, Davlat soliq inspeksiyasi, Statistika bo'limi, Qishloq xo'jaligi bo'limi hamda dahldor tashkilotlar rahbarlariga:**

mavjud yer resurslaridan belgilangan maqsadda, oqilona va samarali foydalanish, yerlarni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish,

ayniqsa qishloq xo'jaligida foydalaniladigan mavjud yer maydonlarini amaldagi qonunlar doirasida muntazam muhofaza qilinishini ta'minlash;

foydalanishdagi yer maydonlarini qonun doirasida himoya qilish va talon-tarojlikdan saqlashga alohida e'tibor qaratish, noqonuniy holatlar aniqlangan holatda aybdorlarga nisbatan keskin choralar ko'rish tadbirlarini belgilash;

yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlashga va yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olinishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan samarali nazoratni amalga oshirilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi Farg'ona viloyati boshqarmasi Farg'ona tumani filiali (N.Otajonov)ga:

yer qonunchiligiga amal qilgan holda tuman bo'yicha yer kadastrini hisobotlarini yuritilishi ustidan nazorat o'rnatilsin;

2024-yil davomida yer uchastkalari egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar murojaatlari asosida davlat yer kadastrini yuritishda (yer uchastkalari tarkibida va undan foydalanishda) yuz bergan o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga olib borish va umumlashtirish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosarlari O.Abduraximov va O/Xojimatov zimmlariga yuklatilsin.

5. Ushbu qarorning tasdig'i viloyat hokimligidan so'ralsin.

Farg'ona tuman hokimi



X.Inomov

Farg‘ona tuman hokimining
2024-yil 17-yanvardagi
39-11-163-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Mavjud yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning qishloq

xo‘jalik yer turlari va ularning taqsimlanishi bo‘yicha

2024-yil 1-yanvarga bo‘lgan

HISOBOTI

t/r	Yer egalari va yerdan foydalanuvchilar bo‘yicha yer taqsimoti	gektar
1	Jamoa xo‘jaliklari va qishloq xo‘jalik kooperativ(shirkat)lar	41144
2	Boshqa vazirliklar, tashkilotlar, korxonalarqa qarashli yerlar	3503
3	Qishloq xo‘jalik ilmiy – tekshiruv muassasalari va o‘quv yurtlari	168
4	Yordamchi qishloq xo‘jalik korxonalar	1310
5	Xususiylashtirilgan fermalar	21
6	Jami qishloq xo‘jalik korxonalar va tashkilotlar egalik qiladigan xamda vaqtincha foydalanadigan yerlar	46147
	Shu jumladan: ijaradagi fermer xo‘jaliklar	25354
	ijaradagi dehqon xo‘jaliklar	1388
7	Zaxira yerlar	4848
8	O‘rmon xo‘jalik korxonalar	310
9	Axoli yashash joylari (shaxar va shaxar turidagi qishloqlar)	569
10	Sanoat, transport, mudofaa, aloqa va boshqa maqsadlar uchun belgilangan yerlar	6862
11	Tabiatni muxofazasi, sog‘lomlashtirish, rekreatsion va tarixiy-madaniy ahamiyatga ega yerlar	105
12	Gidrotexnik va boshqa suv inshootlari uchun ajratilgan xamda kanal bo‘yidagi yerlar	667
13	Jami yerlar	59507
	II. Yer turkumlari bo‘yicha taqsimlanishi	
1	Ekin yerlar	17612
2	Ko‘p yillik daraxtzorlar	8105
	Shundan: Bog‘lar:	7054
	Uzumzorlar	872
	Tutzorlar	157
	Mevali ko‘chatzorlar	21

3	Jami yaylovlar	366
	Shundan sug'oriladigani	366
4	Jami qishloq xo'jalik yer turlari	26083
	Shundan sug'oriladigani	26083
5	Jami tomorqa yerlari	4818
	Shundan sug'oriladigani	2925
6	Bog'dorchilik va sabzavotchilik uyushmalarining yerlar	414
7	Meliorativ qurilish xolatidagi yerlar	87
8	Jami o'rmonzorlar	143
9	Jami foydalanilmaydigan yerlar	27962